



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 3

Languages of publication: **Uzbek**, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO'SHMA SO'Z VA SO'Z BIRIKMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Allaberganova Firuza Ibraximovna

“Roman-german filologiyasi” kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning ingliz tilidagi muqobil variantlari bilan qiyoslanilib va mazkur tillararo ma'no mushtaraklashuvi nisbatini tahlil qilishga harakat qilinadi. Ulardagi ma'no variantdoshlikning xilma-xilligini, shakl va mazmun munosabatlarini tillarning tabiatiga xos xususiyatlari rang-barangligini nazarda tutgan holda bu lingvistik birliklar guruhlariga bo'linib tasniflaniladi.

Kalit so'zlar: til birligi, so'z birikmasi, qo'shma so'z, tahlil.

Ma'lumki, til vositalari orasida so'z birikmalari va qo'shma so'zlar muloqotda alohida ahamiyatga ega bo'lgan birliklar sifatida e'tirof etiladi. Ular deyarli barcha tillarda mavjud bo'lib, bu birliklarning tabiati va mazmun-mohiyatini aniqlash masalasi turli tillar doirasida tilshunoslar tomonidan xilma-xil tarzda talqin qilinadi. Bunday tafovut, bir tomondan, har bir tilning ichki qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, u yoki bu tilni o'rganayotgan mutaxassislarning ilmiy yondashuvlari bilan belgilanadi. Agar mazkur masalaga qiyosiy yondashuv asosida (ya'ni qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni solishtirish orqali) nazar tashlansa, ayrim holatlarda umumiy, bir-birini to'ldiruvchi fikrlar mavjud bo'lsa-da, ko'p hollarda mazkur birliklar bo'yicha qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi. Bu farqlar faqat ularning alohida xususiyatlariga doir emas, balki ularning o'zaro o'xshashlik va tafovutlari bilan ham bog'liqdir. Quyida esa biz o'zbek va ingliz tillarida mavjud bo'lgan so'z birikmalari hamda qo'shma so'zlarning ayrim umumiy va farqli jihatlarini aniq misollar orqali yoritishga harakat qilamiz.

Bunda birikma yoki qo'shma so'z tarkibidagi aniqlovchi bo'lib kelgan “qizil” so'zi bilan bo'g'liq til birliklarini tahlil qilamiz. “Qizil” bu sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, rang nomini bildiradi. U ko'pincha ot bilan birikib, aniqlovchi vazifasida keladi. Bu holda u so'z birikmasi yoki qo'shma so'z tarkibida ishlatilishi mumkin. Tahlilimiz “qizil” komponentli so'z birikmalari va qo'shma so'zlarga qaratiladi.

O'zbek tilida: Qizil shapkacha so'z birikmasini tahlil qilamiz, bu yerda shapkaning rangi qizil ekanligini aniqlab kelyapti. Sitara qizil shapkacha kiydi. Qizil sifati shapka so'zining aniqlovchisi bo'lib, uning rangi tusini bildiriyapti. Mazkur so'zda “-cha” qo'shimchasi shapkaning kichik ekanligini anglatyapti. Singlim otam olib bergan qizil shapkachasini hech boshidan qo'ymaydi.





milk, family upbringing, the wisdom of ancestors, the feeling of patriotism, and the sometimes bitter, sometimes joyful lessons of this life. Especially, closeness to nature and people, always thinking of good things, honest work, and enjoying the incomparable blessings and beauties of the world nourish morality and strengthen it further. The experience of the world's peoples, their complex paths of development, and the lessons and conclusions in this regard indicate that wherever a state and society develop, and sufficient conditions are created for the people to live in peace and tranquility, setting noble and great goals for themselves, a free-thinking environment and new opportunities for spiritual upliftment emerge on that basis.

References:

1. Karimov I.A. High Morality is an Invincible Force. – Tashkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 p.
2. Madumarov T.T. Morality is the source of human growth and power. – Collection of lectures of the Faculty of Social Economics, Andijan State University. Concept of Spiritual and Educational Work of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Ministry of Higher and Secondary Specialized Education, 2020.
3. Alisher Navoi. Beloved of Hearts (Mahbub ul-qulub). – Tashkent: G'afur G'ulom Publishing House, 2019.
4. G'oyibnazarov R. Morality and Human Perfection. – Tashkent: Fan, 2015.
5. Hodiyeu A. National Idea and Foundations of Morality. – Tashkent: O'zbekiston, 2012.





FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIK LARI

Muzaffarov Ikromjon Nodirbek o'g'li

Andijon Qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalari Instituti

Agrobiznes va raqamli Iqtisodiyot fakultati

Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Usmonova Hojiniso Ilxomjon qizi

Andijon Qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalari Instituti

Agrobiznes va raqamli Iqtisodiyot fakultati

Yurisprudensiya yo'nalishi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, ularni Davlat tomonidan Konstitutsiya orqali himoyalanihi, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon Deklaratsiyasini Konstitutsiyamizdagi o'rni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, Konstitutsiya, xalqaro normalar, deklaratsiya, Milliy markaz.

Fuqaroning huquq va erkinliklari - insonga beka mu ko'st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy maqom. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar- qonunlarning mazmuni va qo'llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Konstitutsiyamizning¹⁰ ikkinchi bo'limi "INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQULARI, ERKINLIK LARI VA BURCH LARI" deb nomlanishi vatanimizda insonlarning, fuqarolarning davlatimiz tomonidan har tomonlama muhofaza etilishini isbotidir. O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi.¹¹

"Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi, qonunlarning, davlat organlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi"¹²

Ushbu eng muhim xalqaro-huquqiy printsip Konstitutsiyaning huquq va erkinliklar to'g'risidagi qoidalari ijtimoiy munosabatlarga bevosita tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Bunda qonunchilik hujjatlari huquq va erkinliklarni aniqlashtirish, ularni samarali amalga oshirish qoidalari, mexanizmlari va tartiblarini belgilash maqsadida qabul qilinganligidan qat'i nazar, huquq va erkinliklar bevosita amal qiladi deb tan olinadi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi

¹¹ //lex.uz/docs/6445145#6445635

¹² <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>





Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik printsipligiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun etarli bo'lishi kerak;

Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. Davlatimiz har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini, sud yo'li bilan himoya qilinishini kafolatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda, o'zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o'zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga yo'l qo'yilmaslikka, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirilishiga davlat kafolat beradi. O'z navbatida respublika hududida yashovchi shaxslar Konstitutsiyada ta'kidlangan huquq va erkinliklarga, xalqaro huquq me'yorlariga rioya etishi zarur.

Umume'tirof qilgan mazkur xalqaro me'yoriy manbalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e'lon qilingan asosiy xalqaro hujjatdir. Bu hujjat orqali xalqaro munosabatlarda tarixda birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy huquq va erkinliklari belgilab berilgan. Deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birichi xalqaro hujjatdir. Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi mazkur Deklaratsiya talablariga to'la mos. Respublikamizda inson huquqlariga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilingan va ular xalqaro andozalarga muvofiqlashtirilgan. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili(ombudsman) to'g'risida" qonun qabul qilingan(1997-yil 24-aprel). Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni taminlovchi milliy institutlar – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaz ishlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi
2. Inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasi <https://www.unhcr.org/refugees/article/43c47649-4.html>
3. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili(ombudsman) to'g'risida" qonun qabul qilingan(1997-yil 24-aprel)

